



OLIY TA'LIM MUASSASALARI MOLIYASINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Yakubov Shohruh Akmaljon o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliyalashtirish bo'limi boshlig'i

doi: https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss1/a36

Annotatsiya. Maqolada oly ta'lismuassasalari moliyasini boshqarish tizimining asoslari, moliyaviy barqarorlikka erishish maqsadida OTMga investitsiyalar jalb qilish, ularni o'z-o'zini moliyalashtirish tizimiga to'liq o'tkazish, moliyaviy boshqaruvning ahamiyati, xarajatlarni optimallashtirish yo'nalishlari va bu borada xorijiy tajribalar tahlil qilindi. OTMlarining moliyaviy tizimini takomillashtirish bo'yicha tegishli tartibda xulosa va takliflar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: oly ta'lismuassasasi, moliyaviy boshqaruv, investitsiya, innovatsiya, kadrlar, ta'lim, kreditlar, strategik rejorashtirish, hisobot, xarajat, budjet.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСАМИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Якубов Шохрух Акмалжон углы
Начальник отдела финансирования Ташкентского
государственного экономического университета

Аннотация. В статье проанализированы основы системы управления финансами высших учебных заведений, привлечение инвестиций в вузы в целях достижения финансовой устойчивости, их полный переход на систему самофинансирования, значение финансового менеджмента, направления оптимизации затрат и зарубежный опыт в этой области. Приведены соответствующие выводы и предложения по совершенствованию финансовой системы вузов.

Ключевые слова: высшее учебное заведение, финансовый менеджмент, инвестиции, инновации, человеческие ресурсы, образование, кредиты, стратегическое планирование, отчетность, стоимость, бюджет.

IMPROVING THE MANAGEMENT SYSTEM OF FINANCE OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Yakubov Shohruh Akmaljon ugli
Head of financing department of the
Tashkent State University of Economics

Annotation. The article analyzed the basics of the financial management system of higher education institutions, the involvement of investments in the OSM in order to achieve financial stability, their complete transition to a self-financing system, the importance of financial management, directions of cost optimization and foreign experience in this regard. Conclusions and proposals were drawn in the appropriate procedure for improving the financial system of the CSR.

Keywords: higher education institution, financial management, investment, innovation, personnel, education, loans, strategic planning, reporting, cost, budget.

Kirish. O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanishi, jahon bozorida mustahkam o'rinnegallashi, aholi turmush darajasasi va farovonligining yanada oshirilishi, olib borilayotgan izchil davlat siyosatining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu esa jahon iqtisodiyotining globallashuv ko'lami tobora kengayib borayotgan bir sharoitda har qanday konyunktura o'zgarishlariga qarshi tura oluvchi kadrlar shakllantirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda O'zbekistonda eng muhim iqtisodiy masalalardan biri milliy iqtisodiyotni innovatsion yo'l bilan rivojlantirishga o'tish hisoblanadi. Bu yo'lda amalga oshiriladigan ishlar, albatta, malakali kadrlarni talab etadi. Malakali kadrlar tayyorlash har tomonlama fan va ta'lim bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu masalalar bugungi kunda tadqiq etilayotgan mavzuning maqsadi, vazifalari va dolzarbligini belgilab bermoqda. Mavzuning dolzarbliyi shundan iboratki,

innovatsion o'zgarishlar sharoitida bu o'zgarishlarni joriy qila oladigan, yangiliklarga intiluvchan, malakali kadrlarni shakllantirish va bu borada oliy ta'limga muassasalarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashda oqilona moliyaviy boshqaruvni amalga oshirish hisoblanadi.

Mutaxassislarining takidlashicha, har bir mamlakatda ilmiy tadqiqotlarning samaradorligi uch komponentga bog'liq: intellektual salohiyatning mavjudligi, ilmiy tadqiqotlar moliyalashtirishi va tadqiqotlarni muvofiqlashtirish darajasiaga bog'liq deb takidlangan [1].

Yuqorida keltirilgan fan-ta'limga sohasidagi muammolarni hal qilishda asosiy vazifalar deb quyidagilarni belgilash mumkin [2]:

1. Mamlakat intellektual va texnologik salohiyatini oshirish, uzoq muddatli ssenariylar asosida OTMlарини молиyalashtirish manbalarini izlab topishda ustuvor yo'nalishlar va sohalarning istiqboldagi modellarini shakllantirish imkonini beruvchi strategik rejalshtirish tizimini barpo etish lozim.

2. AKT imkoniyatlaridan muntazam foydalanish, shu jumladan, xalqaro standartlarga muvofiq makro va mikroiqtisodiy darajada barcha tarmoqlarda statistik hisobotlarning to'liq ochiqligi hamda oshkoraligni ta'minlash orqali sohaga investitsiyalarni faol jalg'ish etish.

3. OTM uchun investitsiya olib kirilishi mumkin bo'lgan mamlakatdagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish hamda chora-tadbirlarni baholash uchun obyektiv bozor indekslarini tahlil etuvchi tashkilotlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar ro'yxatini aniqlash va tizimlashtirish (bozor tadqiqotlari ilmiy markazlar tomonidan belgilanishi mumkin).

4. Universitetlarning innovatsion boshqaruvini takomillashtirish. Rahbarlar aksariyati administrativ bosim asosida boshqarishga intilib, professor-o'qituvchilardagi initsiativlik va ijodiy yondashuvning yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Bunday tizim bo'yicha kadrlar tanlash nomzodning ilmiy va intellektual qobiliyatları emas, balki rahbar uchun muhim bo'lgan ma'muriy bajaruvchanlik qobiliyati muhimligi bilan belgilanmoqda. Natijada ilmiy-pedagogik kadrlarda kreativ fikrlash va innovatsion yondashuv yo'qolishiga sabab bo'lmoqda.

5. OTM mablag'larini ishlab chiqarish amaliyotining sifatini oshirish, laboratoriya, tematik, aqlli va zamonaviy texnologik sinflar bilan ta'minlashga yo'naltirish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishimizni yoritishda analiz, sintez, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlillarda oliy ta'limga muassasalarini boshqarishdagi yutuqlar

va kamchiliklar ilmiy abstraksiya usuli va qiyosiy usullardan foydalanilgan holda o'rganildi, muammolar va sohaga oid boshqa bir qator istiqbolli vazifalar tahlil qilindi. Ma'lumotlarni qiyosiy tahlil usulidan foydalanilgan holda kengroq qilib yoritib berishga harakat qilindi. Natijada muammolar aniqlanib, muammolarga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi va mushohada qilish asosida ilmiy xulosalarga kelindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijiy olimlardan Ngo Van Long o'zining "Financing higher education in an imperfect world" nomli ilmiy maqolasida oliy ta'limga talabalarga davlat tomonidan ajratiladigan shartli kreditlar orqali moliyalashtirish g'oyasini ilgari surgan [3].

Boakte-Yiadem OTMning maqsadi yoki kun tartibi uzluksiz boshqarish va moliyalashtirishni ta'minlashga qaratilgan har yili ishlab chiqilgan moliyaviy hisobot va strategik rejalshtirish modelidan iborat bo'lishi kerakligini keltirgan. Ushbu usul OTMlari va manfaatdor tomonlarga loyi-halar, tadbirlarni to'g'ri rejalshtirishga yordam beradi va qo'shimcha pul mablag'larini jalg'ishini ko'rsatib beradi [4].

Futao Xuang o'zining "Higher education financing in Japan: Trends and challenges" nomli maqolasida milliy, mahalliy va xususiy oliy ta'limga muassasalarini hamda ularni moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan [5].

Saymona Marginsona o'zining ilmiy maqolasida Buyuk Britaniyada oliy ta'limga moliyalashtirishda davlat, xususiy va sheriklik (davlat-xususiy sheriklik) asosida moliyalashtirish tizimi o'rganilgan [6].

O.I.Karepina, S.N.Meliksetyan OTMning moliyaviy boshqaruv tizimi – moliya tizimining barqaror va samarali ishlashini va uning individual aloqalarini ta'minlaydigan, iqtisodiyotning real sektorini OTMni rivojlantirishga hissa qo'shadigan, dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qiladigan o'zaro bog'liq chora-tadbirlar, vositalar, shuningdek moliya institutlarining majmuyi sifatida qaraydi [7].

M.K.Begeyeva, M.A.Alseytova fikricha, hozirgi vaqtida universitetlarning moliyaviy barqarorligi ularning barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Bundan tashqari bu ta'limga sifati, mehnat sharoitlari va xodimlarning ish haqiga ta'sir qiladi. Shu munosabat bilan universitetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Universitet moliyasini boshqarishda yuzaga keladigan eng muhim muammolardan biri naqd puldag'i bo'shilqidir [8].

D.D.Rustamova "oliy ta'limga tizimini keng darajada moliyalashtirishni tartibga solish bilan

uning yangi talablar va muammolarga mos tarzda javob bera olishiga yo'l ochiladi” deb keltirgan. Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish manbalarini yanada kengaytirish va mavjud mablag’lardan samarali foydalanishga erishish bilan bog’liq takliflar asosiy konseptual yo’nalishlardir [9].

A.J.Usmov mustaqil iqtisodiy faoliyatiga ega OTMlari xizmatlarni qulay sharoitda yaratish va optimal darajada foyda keltiradigan narxlarda sotish, umuman, iqtisodiyotda o’z mavqeyini mustahkamlash uchun tinimsiz harakatda va izlanishda bo’lishi lozimligini ko’rsatadi [10].

Tahlil va natijalar. Oliy ta’lim har doim jamoat kun tartibida muhim ustuvor vazifa bo’lib kelgan. Bu madaniyatning ombori va himoyachisi, ushbu madaniyatdagagi o’zgarishlarning agenti, milliy iqtisodiy o’sish uchun vosita va jamoaviy intilishlarni amalga oshirish vositasidir. Bundan tashqari jamoatchilikning oliy ta’limga bo’lgan qiziqishi, OTMlarning beradigan bilim darajasiga bog’liq.

Moliya oliy ta’limni samarali boshqarishda juda muhim rol o’ynaydi. Amerika Qo’shma Shtatlari, Yevropa va boshqa qit’alarda moliyaviy resurslar universitetlarga o’qitish, o’rganish, tadqiq qilish va xodimlarni rivojlantirish rolini samarali bajarishga yordam beradi. OECD (2020) ma’lumotlariga ko’ra, so’nggi o’n yilliklarda oliy ma’lumotli kadrlarga bo’lgan ehtiyoj deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda oshgan. Bu talabalarning ichki va xalqaro oqimlari sonining ko’payishi natijasidir. Bu oliy ta’limga davlat xarajatlarining oshishiga ham olib keladi.

Ta’lim va fan darajasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun juda muhim. Ta’lim rivojlanishning asosiy omildir va inson kapitaliga sar-moya kiritmasdan, barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin emas. Inson kapitali iqtisodiy o’sishning markaziy omildir. Xususan, inson kapitali tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot o’zini o’zi ta’minlaydigan iqtisodiy o’sish uchun asosdir. Binobarin, makro va mikrodarajalarda

ta’lim va iqtisodiyot o’rtasida yaqin va ijobiy bog’liqlik mavjud.

Yevropa, AQSh va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida oliy ta’lim muassasalarini investitsion jozibadorligi bilan ajralib turadi. AQShda oliy ta’lim muassasalarini daromadlarning tarkibiy tuzilmasi oliy o’quv yurtlari darajasi va turiga qarab o’zgarib boradi. Davlat oliy ta’lim muassasalarida umumiylar xarajatlarni investitsiyalashda budget mablag’lari ulushi 16,4 foizni, shtat budgeti mablag’lari ulushi 22,7 foizni, mahalliy budget mablag’lari ulushi 6,6 foizni, o’qish uchun to’lovlari 22,8 foizni, nodavlat investitsiyalari va xayriyalar o’rtacha 16 foizni hamda qolgan 16 foiz qismi boshqa turli xizmatlarni ko’rsatish va tijoratlashtirish orqali keladigan daromadlar hisobiga to’g’ri keladi. Keltirilgan dalillarga asoslansak, bunda OTM umumiylar xarajatlarining o’rtacha 46 foizga yaqin qismi davlat budgeti hisobiga, 54 foizdan ortiq qismi nodavlat investitsion manbalari hisasiga to’g’ri kelishini ko’ramiz [11].

Notijorat faoliyati asosidagi xususiy oliy ta’lim muassasalarida esa moliyalashtirish manbalarini davlat oliy ta’lim muassasalaridagi holatdan birmuncha farq qilib, unda umumiylar xarajatlarini investitsiyalash manbalarida talabalarning o’qish uchun to’lovlari 32,5 foizni, investitsiya manbalarini 26,5 foizni, federal budget mablag’lari 12 foizga yaqin qismini, xayriya mablag’lari, grantlar va hamkorlik shartnomalari 11,1 foizni, shahar budget mablag’lari ulushi esa 1 foizni, boshqa turli xizmatlarni ko’rsatish va tijoratlashtirish orqali keladigan daromadlar 17,2 foizga yaqin qismini tashkil etgan[11]. Natijada notijorat faoliyati asosidagi xususiy oliy ta’lim muassasalarida davlat budgeti hisobiga investitsiyalash umumiylar moliyaviy manbalarning atigi 13 foizini tashkil etgan holda, 87 foizi nodavlat investitsiya manbalari hisobiga to’g’ri kelgan. Bu ajoyib natijalardir. O’zbekiston OTMlarning ham bunday moliyalashtirish tizimiga o’tishi raqobat muhitini va ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi.

1-jadval

AQSh universitetlarida umumiylar xarajatlarni moliyalashtirishning investitsiya manbalari [10]

Nº	OTM turlari	Davlat budgeti (federal, shtat va mahalliy budget) ulushi (foizda)	Budgetdan tashqari manbalari ulushi (foizda)
1.	Davlat oliy ta’lim muassasalarini	46	54
2.	Notijorat faoliyati asosidagi xususiy oliy ta’lim muassasalarini	13	87
3.	O’rtacha ulushi	29,5	70,5

Oliy ta’lim muassasalarini mablag’lari muassasalarda moliyaviy ishlarni boshqarishda daromadlar va investitsiya mablag’laridan hosil bo’la-

digan turli xil vositalar yoki manbalarga ega. OTMni moliyalashtirish mablag’larining umumiylar manbalari quyidagilar[4]:

- davlat kreditlari va grantlari;
- banklar va boshqa moliya agentliklarining xususiy kreditlari;
- ta'lim olish uchun to'lanadigan kontrakt summalar;
- bo'sh turgan manbalardan foydalanish orqali olinadigan daromadlar;
- va boshqa qonun hujjatlariga zid kelmay-digan holdagi manbalar.

Ta'lim tizimini moliyalashtirishning yildan yilga o'sishi avtomatik ravishda ta'lim sifatini oshirishni anglatmaydi. Buni to'g'ri amalgaga oshirish uchun islohot strategiyasi va taktikasini yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Moliyalashtirish natijalari optimal taqsimlash va maksimal samarali bo'lishi lozim. Oliy ta'lim muassasalari moliyaviy boshqaruv strategiyasi barqaror o'sishini ta'minlashi kerak. Kuchli moliyaviy boshqaruv tizimi institutsional barqarorlik va o'sish asosiy jihatni hisoblanadi. Strategiya ta'lim tizimini o'zgartirishga yo'naltirilishi kerak.

"Oliy ta'lim muassasalarining investitsiya manbalarini diversifikatsiyashda, asosan, 3 toifadagi moliyalash manbalari keng qo'llaniladi. Bular [12]:

1. Davlat tomonidan moliyalashtirish (soliq to'lovchilar tomonidan).

2. Talabalarning ta'lim olish uchun belgilangan shartnoma to'lovlar yoki moliyaviy badallari.

3. Muqobil yoki qo'shimcha investitsiyalash manbalari (xususiy moliyalashtirish, xayriya fondlari, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni tijoratlashtirish, turli pulli xizmatlar tashkil etish).

Bugungi kunda dunyo miqqosida keltirilgan investitsion manbalardan dastlabki ikkitasi bar-cha oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning eng katta qismini tashkil etadi.

Oliy ta'lim tizimi yuqori intellektual salohiyati kadrlar tayyorlash tizimini o'zida mujassamlashtirib, servis va xizmatlar sohasidagi yuqori qo'shilgan qiymatga ega biznes turi sifatida rivojlanishi ularning milliy bozorda o'rni oshishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi moliyaviy holatda ko'plab rivojlanigan mamlakatlar oliy ta'limni moliyalashtirishdagi ko'tarilish va bosimni hisobga olgan holda o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Bir necha mamlakatlarda o'quv to'lovlar va boshqa moliyalashtirish manbalari oshirildi.

Oliy o'quv yurtlarini moliyalashtirishga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omil iqtisodiy omildir. Iqtisodiy jihatdan, istisnolardan tashqari, bar-cha akademik muassasalar moliyaviy muammlarga duch kelmoqda. Aksariyat universitetlar moliyaviy jihatdan omon qolish uchun tashqi

manbalarga yoki elementlarga, shu jumladan, tababalar va ularning oilalari tomonidan to'lanadigan o'quv to'lovlariga bog'liq bo'lib qolgan.

Yuqorida munozaradan xulosa qilish mumkinki, oliy ta'lim, haqiqatan ham, moliyalashtirishga muhtoj, ammo yuqori darajadagi ta'lim kursini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar qondirilishini ta'minlash uchun hukumat, shaxslar va boshqa davlat idoralari zarur chorallarni ko'rishlari kerak. Bu esa OTMda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

O'quv to'lovlarini oliy o'quv yurtlari oliy ta'limni moliyalashtirish uchun mablag' yig'ishning asosiy vositasi sifatida qaraydigan bo'lsak, o'quv to'lovlar mavjud bo'lgan oliy ta'lim tizimlarda oliy o'quv yurtlari tomonidan qo'yiladigan boshqa to'lovlar, masalan, laboratoriya to'lovleri, kerakli kitoblar va materiallar talabalar tomonidan to'lanadigan asosiy xarajatlar hisoblanadi. Talabalar tomonidan to'lanadigan to'lovlar oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashda davlat xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi va shu bilan ularga tizimni kengaytirish hamda davlatni ortiqcha mas'uliyatdan ozod etadi, davlat faqat nazoratni amalgaga oshiradi. Ba'zi OTMlari talabalardan katta miqdorda daromad qilishadi va bu daromadlarni yuqori darajada taqsimlab, talabalarga yo'naltiradi va talabalar ehtiyojlariga javob beradigan bo'lishini hisobga olishadi. Bu esa astasekin yaxshilangan ta'limga olib keladi.

Bundan tashqari oliy o'quv yurtlari o'zlarining dolzarb moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun tashkil etilgan maxsus mablag' yig'ish dasurlari orqali o'z faoliyatini moliyalashtirishi mumkin. Bunda universitetlar va kollejlar o'z maqsadlarini qo'llab-quvvatlash uchun fondlar, kelishuvlar, uyushmalar, homiylardan moliyalashtirish kabi bir nechta agentliklar bilan ishlashi mumkin. Mablag' yig'ish, shuningdek, obro'sini saqlab qolish uchun nafaqat individual harakatlarni, balki universitet ehtiyojlarini qondirish uchun yetakchilik va jamoaviy ishlarni talab qiladi.

Moliyalashtirish manbayini universitetlarga tadqiqot ishlarida yordam berish uchun homiylik qilgan tashkilotlar orqali olish mumkin. Tadqiqotning maqsadi va vazifasiga qarab, akademiklar va tadqiqotchilarga ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yordam beradigan tegishli tadqiqot loyihalariда qatnashish uchun individual va tashkilot stipendiylari berilishi mumkin. Universitetlar turli xil homiylik vazifalarini, xayr-ehsonlar yoki OTMning turli sohalaridagi bilimli talabalariga stipendiya, grant loyihalari boshlash uchun mablag' ajratishi mumkin.

Oliy o'quv yurtlarida moliyani samarali boshqarish to'g'ri budget va rejalashtirishni talab qiladi. OTMlari moliyalashtirish mablag'larini va bunday mablag'lardan qanday foydalanish mumkinligini aniq ko'rsatadigan reja tuzishi kerak. Budgetlashtirish deganda, tashkilotning strategik rejalarining rasmiy, miqdoriy ifodasi tushuniladi, menejerlar va xodimlarga maqsad va vazifalarga erishish uchun harakat va motivatsiyani aniq ko'rsatishni ta'minlash uchun yo'nalish beriladi [13]. Unda ma'lum bir yil davomida daromadlar va xarajatlarning muvozanatli hisobotini yaratish jarayoni bilan shug'ullaniladi. Rejalashtirish tashkilot yoki uning faoliyatida oldindan o'ylangan choralar yoki g'oyalarni foydali harakatlarga kiritish jarayonidir [13].

Har bir tashkilot, shu jumladan, universitetlar va kollejlar budgetlashtirish va rejalashtirishga ega, chunki budgetsiz maqsadlarga erishish uchun oliy ta'lim faoliyatini to'g'ri rejalashtirish mumkin emas. Oliy ta'lim tizimlarida budgetlashtirish jarayoni strategik maqsadlarga erishilayotganligini baholash va baholash vositasi bo'lib ham xizmat qiladi.

2019-yil A.A.Mahmudov "Oliy ta'lim muassalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy ishida oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish manbalarini subyektiv jihatdan guruhalashtiradi va u quyidagicha yondashadi (2-jadval).

2-jadval

Kapital qo'yilmalardan olingan foydaga muvofiq ta'limni investitsiyalash jarayoni [14]

Investitsiyalash subyektlari	Xarajatlar	Foya
Uy xo'jaliklari	Ta'lim olayotganning o'qishi, moddiy ta'minoti va yashashi uchun to'lov	Kelajakda yuqori ish haqi; ishga joylashish; yanada yuqori miqdorda jamg'arish; shaxsiy va kasbiy harakatchanlik; o'zining va oila a'zolari turmush sifatining oshishi; shaxsiy maqomi oshishi
Korxonalar va firmalar	O'qish uchun to'lov, talabaning moddiy ta'minoti, o'quv yurtining moddiy va texnik bazasiga ajratmalar	Mehnat unumdorligining oshishi; yuqori malakali kadrlar; korxonaning innovatsion rivojlanishi; maqomning oshishi; kasbiy harakatchanlik; mehnat sharoitlarining yaxshilanishi
Davlat	Budgetdan maqsadli ajratilgan mablag'lar; ajratmalar tarkibi; talabalarni qo'llab-quvvatlash; kommunal xizmatlar to'lovi; moddiy-texnik bazani saqlash va rivojlantirish	Milliy va hududiy rivojlanish; ta'lim tizimining yuksalishi; kam malaka talab etadigan mehnatga asoslangan industrial iqtisodiyotdan yuqori bilimlarga asoslangan industrial iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantirish va mustahkamlash; jamiyatda bilim darajasining oshishi va jinoyatchilikning pasayishi

OTMning moliyaviy boshqaruvida budgetlashtirish tushuntirilishi kerak bo'lgan turli terminologiyalar bilan birga keladi. Moliyaviy boshqaruv har qanday tashkiliy yoki institutsional faoliyatning juda muhim tarkibiy qismidir va shuning uchun ham davlat, ham ichki ishlab chiqarilgan manbalar mablag'laridan to'g'ri foydalanishni ta'minlash uchun barcha zarur choralarini ko'rishi kerak. Tashkilot yoki muassasalarining mo'ljallangan maqsadlariga erishish uchun budget siyosati va rejalashtirish jarayonlari kalit hisoblanadi. Mablag'larsiz OTMning maqsadlariga, vazifalariga to'liq erishish yoki amalga oshirish darajasi kamayadi. Shuning uchun OTMning mablag' va boshqa resurslarning uzluksiz taqsimlanishini ta'minlash juda muhimdir.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar natijasida, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini oshirish borasida quyidagi tavsiylar ishlab chiqildi:

- oliy ta'lim muassasalariga nafaqat tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt miqdorini, balki bazaeviy to'lov-kontrakt miqdorini ham mustaqil belgilash huquqini berish (bunda to'lov-kontrakt miqdori sun'iy oshib ketmasligi uchun uning bazaviy miqdorining maksimal chegarasini ham belgilash zarur);

- oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'z-o'zini moliyalashtirish tizimiga o'tkazishni yanada kengaytirish;

- oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

- mamlakatimizning barcha oliy ta'lim muassasalarida ta'limning kredit tizimini joriy qilish;

- mamlakatimizda xususiy, xorijiy, mas'uliyyati cheklangan jamiyat, jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosidagi, aksiyadorlik jamiyatlari shakllaridagi oliy ta'lim muassasalarini kengaytirish;

- mas'uliyati cheklangan jamiyat va aksiyadorlik jamiyatlari shaklidagi oliy ta'lif muassasalarining ochilishi va unda mahalliy va xorijiy investorlarning ulushga egalik qilishi, mamlakatimiz oliy ta'lif tizimiga xorijiy va mahalliy investorlarni jalg qilish;
- oliy ta'lif muassasalariga mablag'larning erkin tasarruf etish huquqini yanada takomillashitirish;
- xorijiy investitsiyalarni keng jalg qilish orqali pulli xizmatlar ko'lamini kengaytirish va

boshqa budgetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lif muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish;

- oliy ta'lifning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lif va ilm-fan texnologiyalarini jalg etish kabi bir qator masalalarni rivojlantirish.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кадыров А., Адылова З., Валиев Б. Информационный обзор «Проблемы развития экономической науки и пути их решений в Республике Узбекистан». – Т.: НИЦ при ТГЭУ, 2018 г.
2. Худайназаров А. Высшее образование в преобразованиях. <http://review.uz>
3. Ngo Van Long Financing higher education in an imperfect world. // *Economics of Education Review*, Volume 71, August 2019, Pages 23-31. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0272775717301577>
4. Boakte-Yiandom, Emmanuel. "Financial Management in Higher Education". *Atlantic International University* 1.1 (2021): 25. Print.
5. Futaoh Huang Higher education financing in Japan: Trends and challenges. // *International Journal of Educational Development* Volume 58, January 2018, pages 106-115. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0738059316305685#fn0010>
6. Саймона Маргансона. Global trends in higher education financing: The United Kingdom. // *International Journal of Educational Development* Volume 58, January 2018, pages 26-36. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0738059317301748>
7. Карепина О.И., Меликсян С.Н. Теоретико-методологические подходы к управлению финансами высших учебных заведений. // Финансовая аналитика: проблемы и решения. 2015. №38 (272). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/teoretiko-metodologicheskie-podkhody-k-upravleniyu-finansami-vysshikh-uchebnyh-zavedeniy>.
8. Бегеева М.К., Альсейтова М.А. Проблемы финансового обеспечения деятельности высших учебных заведений. – Ғылым, зерттеулер, білім беру: даму үрдістері: XXIII халықаралық ғылыми-практ. конф. материалдары= Science, research, education: development trends: The materials of the XXIII international scientific and practical conf.= Наука, исследования, образование: тенденции развития: мат. XXIII междунар. науч.-практ. конф.(Уральск, 14 апреля 2023 г.)/ЗКАТУ им. Жангир хана//Ғылым және білім= Наука и образование= Science and education.-2023.-№ 2 (71): прил. к журналу№ 1, 2023.
9. Рустамова Д.Д. Ўзбекистонда олий таълим тизимини молиялаштириш масалалари. // Современное образование (Узбекистан). 2014. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-oliy-talim-tizimini-moliyalashtirish-masalalari>
10. Усмонов А.Ж. Олий таълим муассасаларининг иқтисодий функционаллигини тақомиллаштириш орқали молиявий имкониятларини ошириш. // JMBM. 2022. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oliy-talim-muassasalarining-i-tisodiy-funktionalligini-takomillashtirish-or-ali-moliyaviy-imkoniyatlarini-oshirish>
11. Шеров А.Б. Олий таълим муассасаларини молиялаштиришнинг АҚШ тажрибаси. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601. Volume: 1, ISSUE: 6. www.scientificprogress.uz
12. Thomas Estermann & Enora Bennetot Pruvot. "Financially Sustainable Universities II" European universities diversifying income streams. EUA publications 2011. Page 26.
13. Bryson, J.J. (2018) Patience Is Not a Virtue The Design of Intelligent Systems and Systems of Ethics. *Ethics and Information Technology*, 20, 15-26.
14. Маҳмудов А.А. "Олий таълим муассасаларида молиявий ресурсларни бошқарииш механизмини тақомиллаштириш" мавзусида 08.00.07-“Молия, пул муомаласи ва кредит” ихтинослигида ёзилган PhD диссертацияси. 2019 йил, 22-бет.